
BIZ VATAN TAQDIRI VA UNING RAVNAQIGA BEFARQ EMASMIZ



Biz Vatan taqdiri va uning ravnaqiga befarq emasmiz

2023 yilning 9 iyul kuni Respublikamizda muddatidan ilgari Prezident saylovi bo'lib o'tdi. Yangi O'zbekistonning rivojlanishi, uning ravnaqiga befarq bo'lmagan har bir fuqaro ushbu siyosiy jarayonda faolligini namoyish etib, o'z siyosiy irodasiga tayanib, munosib nomzodiga o'z ovozini berdi.

Saylovlar So'x tumanimizda katta tantana va zo'r kayfiyatda bo'lib o'tdi. Saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va uni uyushqoqlik bilan o'tkazish o'rtasidagi muddatda aksariyat mutasaddi rahbarlar o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

Saylov jarayoniga tayyorgarlik ko'rish davomida tumandagi mavjud 30 ta saylov uchastkalari binolarini tadbirga tayyor holatga keltirilishi va komissiya a'zolarini malakasini oshirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Saylov uchastkalarining aksariyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida joylashgani bois, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutasaddilari siyosiy jarayonga tayyorgarlik jarayonida astoydil harakat qilishdi. Mamlakat hayotidagi siyosiy jarayonda ushbu soha vakillari namuna ko'rsatdilar.

Jumladan, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri Gulnoza Usmonova tomonidan uchastka saylov komissiya a'zolarining malakasini oshirish davomida saylov qonunchiligida belgilangan ko'rsatma va talablar bo'yicha barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Ushbu siyosiy tadbirni tashkil etishda har tomonlanma yaqindan amaliy va huquqiy yordam ko'rsatib kelganliklari o'z samarasini berdi.

Bugungi kunda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri sifatida faoliyat olib borayotgan Gulnoza Usmonovaning siyosiy tadbirlardagi faolligi e'tirof etishga loyiq. Men ushbu siyosiy jarayonga daxldor shaxs sifatida tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudirining kelgusidagi faoliyatida ulkan zafarlar tilayman.

Kelajakda Vatanimiz hayotidagi bunday mas'uliyatli tadbirlarni mana shunday uyushqoqlik va kayfiyatda o'tkazilishiga ishonchim komil. Vatanimiz kelajagi bo'lgan navqiron avlod vakillariga ta'lim-tarbiya berish kabi mashaqqatli va sharafli ishlarida Yaratgandan kuch-g'ayrat tilab qolamiz.

Ibrohimjon Ahmadov - tuman hokimining jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-18 17:18:16